

ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN BOLALARGA IJTIMOIIY YORDAM KO'RSATISHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING AHAMIYATI

Yusubjonova Guljamol Farxod qizi

Namangan Davlat Pedagogika instituti Ijtimoiy ish yo'nalishi magistranti
yusubjonovaguljamol2000@gmail.com +998 (97) 992 71 02

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent B.Ataxanov

Annotatsiya: Bolalarga nisbatan zo'rvonlik ota-ona yoki uning atrofidagi yaqinlari orasida yoki bo'lmasam umuman begona odamlar orasida zo'rvonlikka uchrashidir. Zo'rvonlik bolaning uyida yoki u vaqt o'tkazadigan tashkilotlar, maktab va jamoat joylarida sodir bo'ladi. Bolalarga nisbatan zo'rvonlik va bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish atamaları birgalikda bir-birini o'rnini to'ldirib keladi. Shunga qaramay, ba'zi tadqiqotchilar bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish atamasini beparvolik ekspluatatsiyasi va odam savdosini o'z ichiga oluvchi soyabon sifatida ko'rishadi. Boshqa davlatlar singari bizning davlatimiz ham zo'rvonlikdan ayniqsa bolalarga qilinayotgan zo'rvonlikdan aziyat chekib kelmoqda. Biz bu maqolamizda zo'rvonlikka qarshi kurashish va ularga qilinayotgan yordamlar haqida ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: zo'rvonlik, bola, psixologik xizmat, ijtimoiy himoya, maslahat, qonun, terapiya, olimlar.

ВАЖНОСТЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УСЛУГ В ОКАЗАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ ДЕТЯМ, ПЕРЕЖИВШИМ НАСИЛИЕ

Аннотация: Насилие в отношении детей – это насилие между родителями или близкими родственниками, а также между незнакомыми людьми. Насилие происходит в доме ребенка или в организациях, где он проводит время, в школах и общественных местах. Термины «насилие в отношении детей» и «жестокое обращение с детьми» часто используются как синонимы. Однако некоторые исследователи рассматривают термин «жестокое обращение с детьми» как общий термин, включающий в себя пренебрежение, эксплуатацию и торговлю людьми. Как и другие страны, наша страна также страдает от насилия, особенно от насилия в отношении детей. В этой статье мы рассмотрим борьбу с насилием и помощь, оказываемую детям.

Ключевые слова: насилие, ребенок, психологическая служба, социальная защита, консультирование, право, терапия, ученые.

THE IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN PROVIDING SOCIAL SUPPORT TO CHILDREN EXPERIENCED BY VIOLENCE

Annotation: Violence against children is violence between parents or close relatives, or even between strangers. Violence occurs in the child's home or in organizations where he

spends time, schools and public places. The terms violence against children and child abuse are often used interchangeably. However, some researchers see the term child abuse as an umbrella term that includes neglect, exploitation and human trafficking. Like other countries, our country also suffers from violence, especially violence against children. In this article, we will consider the fight against violence and the assistance provided to them.

Keywords: *violence, child, psychological service, social protection, counseling, law, therapy. scientists.*

KIRISH

Bugungi kun hayotida eng jiddiy va og'riqli muammolardan biri – bu zo'ravonlikdir, ya'ni bu boshqa bolaga nisbatan ruhiy va jismoniy tazyiq o'tkazish holatidir. Bu holatlar insonlarning ayniqsa, bolalarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. UNICEF statistikasiga ko'ra dunyo bo'ylab har to'rt boladan biri zo'ravonlikka duchor bo'ladi va har besh daqiqada bir bola zo'ravonlikning turli shakllari tufayli vafot etadi[6]. Bunday holatlarni erta aniqlash, ishonch telefonlari va maktablarda ish olib borish –ana shu isbotlangan ishlar samarali choralar zo'ravonlikka qarshi kurashishda yordam beradi. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish, aniqlash va ularga qarshi kurashishda ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va adliya sohalari mutaxassislarining roli va majburiyatlarini aniq belgilab berilishi kerakdir.

Zo'ravonlikka uchragan bolalarni himoya qilish uchun oilani qo'llab-quvvatlash xizmatlari va samarali tizimlarni takomillashtirish muhimdir. Ijtimoiy tarmoqlarda O'zbekistonda ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari aks ettirilgan bir qancha videolavhalar tarqalgandan so'ng, UNICEF odatiy hol bo'lib ko'ringan bunday holatlardan xavotirda ekanini bildirdi: Ayrim hodisalar, jumladan, go'dak bilan bo'g'liq bo'lganlari, jamoatchilik ko'z oldida va kuzatuvchilar ishtirokida sodir bo'lmoqda. Zo'ravonlikning oldini olish mumkin deydi UNICEF ning O'zbekistondagi rahbari Munir Mamedzada "Zo'ravonlikning oldini olishda har kimning o'z o'rnini bor. Odamlarning zo'ravonlikka munosabatini o'zgartirish, jazosiz qolishga chek qo'yish, ijobiy tarbiya me'yorlari va amaliyotni targ'ib qilish, jabrlanganlarga malakali yordam ko'rsatish zarur"[8] deb ta'kidlaydi. UNICEF shuningdek, bolalarga qarshi zo'ravonliklar holatini aniqlash va ularga javob berish bo'yicha standart proseduralar ishlab chiqish va tatbiq etish borasida Vazirlar

Mahkamasining Ta'lim va sog'liqni saqlash kotibiyatining Bolalarni himoya qilish bo'yicha yangi sektori , Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya va Bolalar ombudsmani bilan hamkorlik mamlakatga ko'mak berib kelmoqda . UNICEF dunyoning eng qiyin joylarida muhtoj bolalarga yordam berish maqsadida faoliyat ko'rsatadi. 190 ta mamlakat va hududlarda har bir bola uchun, har yerda barcha uchun eng yaxshi dunyoni yaratish uchun mehnat qilmoqda.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotchilar N.V.Malyarova, M.Nesmenyanov ijtimoiy himoya va oiladagi zo'ravonlik tarixiy shakllarini o'rganib, jismoniy jazo choralarining salbiy ta'sirini tahlil qildilar. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, zo'ravonlik tug'ma instinkt emas, balki ijtimoiy muhit, tarbiya, shaxsiy tajriba natijasida shakllanadigan xulq-atvor deb hisoblashgan.Ularning ishida eng muhim tushuncha bu-frustratsiya (maqsadga erisha olmaslik)- agressiyaga olib keladi.Malyarova va Nesmenyanovning tushuntirishlari bo'yicha , zo'ravonlik- bu inson tug'iliboq olib keladigan xususiyat emas, balki u ijtimoiy sharoit va tarbiya natijasida shakllanadi degan xulosaga kelishdi."Bobo dol" tajribasi orqali tanilgan mashhur psixolog Albert Bandura 1961-yilda o'tkazilgan tadqiqotiga ko'ra, bolalardagi zo'ravonlikni kuzatish va taqlid qilish orqali o'rganishini taklif qiladi[1].O'z tajribalarini boshlaydi Bandura bolalarni 3-guruhga ajratgan

NATIJALAR

1.Agressiv modul guruhi

Bolalar kattalarning "Bobo dol "(shishirilgan qo'g'irchoq)ga urish, tepish, haqoratlashini ko'rishga.

2.Noagressiv model guruhi

Bu bolalar kattalarning tinch,sokin o'yin o'ynayotganini kuzatishgan.

3.Nazorat guruhi

Hech qanday model(namuna)ko'rsatilmagan.

Bolalar alohida xonaga kiritiladi, xona ichida o'yinchoqlar jumladan "Bobo doll" ham bo'ladi. Bolalar zo'ravonlikni faqat jazolanmaganligi uchun emas, ular boshqalarni kuzatib tahlil qilib o'rganadi. Uning "Ijtimoiy o'rganish nazarasiyasi"asosiy dalilardan biri hisoblanadi. "Odamlar boshqalarni jarohatlaydi

,chunki o'zlari ichkaridan jarohatlangan" deya Gilligin o'z nazariyasini ommaga taqdim etadi. U zo'ravonlik qilayotgan insonlar bilan suhbat o'tkazadi va ichki kechinmalarini tahlil qiladi. Natijada zo'ravon odamlar o'zini past baholagan, hurmatsiz qilingan, yoki rad etilgan his qiladi degan xulosaga kelishdi. Zo'ravonlik- bu faqat jahl emas, balki ruhiy og'riq natijasidir deya ta'kidladi.

Zo'ravonlik-o'limga, psixologik zararga notog'ri rivojlanishga yoki mahrumlikka sabab bo'luvchi o'ziga, boshqa shaxsga, guruhga yoki jamiyatga qarshi har qanday kuchni qasddan qo'llash, tahdid qilish yoki jarohat yetkazish zo'ravonlikdir. Shaxs tomonidan o'ziga nisbatan sodir etilgan zo'ravonlik yoki kichik bir guruh tomonidan sodir etilgan zo'ravonlik va davlatlar, uyushgan siyosiy guruhlar, militsiya qismlari hamda terroristik tashilotlar kabi katta tuzilmalar tomonidan sodir etilib kelinmoqda. Eng katta muammolarimizdan biri bu-bolalarga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lish butun umr davomida jiddiy oqibatlariga olib keladigan global muammodir, ammo uni o'rganish murakkab va qiyin sanaladi. Bolalarga nisbatan zo'ravon munosabatda bo'lish boshlanishidan oldin uning oldini olish mumkin va bu ko'p tarmoqli yondashuvni talab qiladi. Samarali profilaktika dasturlari ota-onalarni qo'llab-quvvatlaydi va ijtimoiy tajriba ko'nikmlarini o'rgatadi. Bolalar va oilalarga doimiy g'amxo'rlik yomon munosabatda bo'lish xavfini kamaytirish va uning oqibatlarini olish mumkin [20][21].

Zo'ravonlik turlari

Jismoniy zo'ravonlik- bolalarga turli darajada tan jarahotlarini yetkazish, ularni xavf ostida qoldirish va jismoniy ta'sir o'tkazishni o'z ichiga oladi. Jismoniy zo'ravonlik haqida asosan BMT (UNDP) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Ombudsmani, sotsiologlar va huquqshunoslar gender tengsizligi, oiladagi zo'ravonlik va bolalarga nisbatan shafqatsizlik haqida fikrlarini bildirganlar. Ota-ona yoki tarbiyachilar tomonidan bolalarga nisbatan jismoniy shafqatsiz oqibatlariga olib kelmoqda.

Ruhiy zo'ravonlik- bolalarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish, ularni tahqirlash, shuningdek, bolalarning asosiy ehtiyojlarini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalangan zo'ravonlik shakli, shu jumladan zo'ravonlikdan jabrlanuvchida o'z

xavfsizligidan xavotir uyg'otadigan, o'zini himoya qila olmasligiga olib keladigan yoki ruhiy salomatligiga zarar yetkazadigan harakatlar. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, hissiy zo'ravonlikning oqibatlarini jismoniy zo'ravonlikning oqibatlaridan sezilarli darajada farq qilmaydi

G'amxo'rlik ko'rsatmaslik-zarur imkoniyatlarga, bilim va ko'nikmalarga shu jumladan, buning uchun tegishli xizmatlardan (davlat, tibbiy, ta'lim, ijtimoiy, va boshqa xizmatlardan) foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lgan ota-ona (ular o'rnini bosuvchi va bolaga qarab turgan shaxslar) tomonidan bolaning sog'lig'i, jismoniy, aqliy, va axloqiy buzilishiga olib kelishi.

Bolaga nisbatan maishiy zo'ravonlik:-bolaning to'laqonli rivojlanishi, jismoniy va ruhiy salomatligi uchun oziq-ovqat, uy-joy va boshqa zarur sharoitlar bilan ta'minlash, xavfsizlik, ta'lim olish, ijtimoiy aloqalarni o'rnatish, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish va imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Bolalarni ekspluatatsiya qilish-boladan iqtisodiy, jinsiy va boshqa maqsadlarda foydalanish, shu jumladan, odam savdosi, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga va tilanchilik qilishga jalb etish, jinsiy ekspluatatsiya shuningdek, nikohga va er-xotin bo'lib yashashga majburlash, ma'lum bir diniy ta'lim olishga undash, har qanday shaklda mehnatga majburlash uchun jismoniy yoki ruhiy ta'sir o'tkazish kiradi.

Ta'qib qilish (bulling) - bir guruh bolalar yoki bitta bola tomonidan boshqa bolaga yoki bolalarga nisbatan haqoratli laqablardan foydalanish, u bilan har qanday muloqatni rad etishi, uning mulkini tortib olish va zarar yetkazishi, jismoniy, ruhiy yoki aqliy xususiyatlarini omma oldida muhokama qilishi, sha'ni va qadr-qimmatini kamsitishi yoki sog'lig'i va sog'ligiga va hayotiga zarar yetkazishi, shu jumladan, internet orqali amalga oshiriladigan uzoq muddatli ruhiy va jismoniy tajovuzkor ta'sir o'tkazishdir.

Davlat bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish uchun huquqiy, ma'muriy, ijtimoiy, iqtisodiy choralarni ko'rmoqdadir. O'zbekiston prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi vakolatli davlat organi etib tayinlandi.

Zo'rvonlikdan jabr ko'rgan bolalarga yordam ko'rsatish

Zo'rvonlikdan jabr ko'rgan bolalarga huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy yordam ko'rsatish kerak;

-bolaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ruhiy yoki jismoniy jarohatning salbiy ta'sirini kamaytirish

-hayot sifatini oshirish va ruhiy-hissiy osoyishtalikni ta'minlash

-oila a'zolari, tengdoshlari bilan munosabatlardagi xulq og'ishlarining oldini olish yoki oqibatlarini bartaraf etish

-sog'liqni tiklash va mustahkamlash

-zo'rvonlik sodir etgan shaxsdan moddiy zararni qoplash va ma'naviy zararni kompetensiya qilish choralarini ko'rish

-yuridik yordam ko'rsatish, huquqiy axborot va maslahatlar berish

-zo'rvonlik sodir etgan bunga moyilligi bo'lgan shaxs bilan muloqotni cheklash yoki to'sqinlik qilish

-vaqtinchalik xavfsizlik va g'amxo'rlikni ta'minlash

-xavfsiz boshpana berish

Zo'rvonlikka uchragan bolalardagi travma chuqur, psixologik, fiziologik va sotsiologik ta'sirga ega bo'lib sog'liq va farovonlikka salbiy ta'sir o'tkazishi masalan, nosotsial xatti-harakatlar, diqqat yetishmasligi giperaktivlik buzilishi va uyquning bir me'yorda bo'lmasligi kabi noxush holatlarga olib kelishi mumkin. Bolalik travmasining davolashning ko'plab metodlari jumladan, psixosotsial muolajalar, farmakologik muolajalar kabi davolash usullari mavjuddir. Maktab yoshidagi bolalarga psixologik tadqiqot metodlari hamda psixosotsial muolajalardagi kognitiv xulq-atvor terapiyasi, o'yin terapiyasi, art-terapiyasi, guruh terapiyasi kabilar samarali usul hisoblanadi. Psixologik tadqiqot metodlari **kuzatish metodida**-insonning yo shu zo'rvonlikka uchragan bolaning xatti-harakatlari kuzatiladi va shu orqali ma'lumot yig'iladi. **Suhbat(intervyu)** metodi bu psixolog va mijoz o'rtasida muloqot orqali undagi bo'layotgan hissiyotlar orqali ma'lumot yig'iladi. **Test metodi** maxsus psixologik testlar yordamida shaxsning xususiyatlari o'lchanadi. IQ testi, shaxsiy testlar, stress darajasini aniqlash testlari olinadi. **Eksperiment metodi**-bu nazorat qilingan sharoitda psixologik sharoitlarni o'rganish ya'ni sabab-

oqibat munosabatlarini aniqlash imkonini beradi. Psixodiagnostika shaxsning ruhiy holatini aniqlash uchun kompleks metodlar (test, suhbat, kuzatish)usullaridan barobar holatda qo'llaniladi. Keng qamrovli ma'lumot beradi zo'ravonlikka uchragan bolalarning ko'p qirralari stresslari ochib beriladi. Nafaqat zo'ravonlikka uchragan bolaning balkim zo'ravonlik qilgan insonning ham nima uchun bu ishni qilganligi ochib beriladi. Psixologik muolajalar ham bolalarning holatini aniqlashga zo'r terapiyadir. **Kognitiv xulq-atvor terapiyasi** –bu zamonaviy psixoterapiya usuli bo'lib insonning salbiy fikrlash va zararli xatti-harakatlarini aniqlab, ularni sog'lom va konstruktiv shakllarga almashtirishga yordam beradi. U depressiya, tashvish, fobiya va travmatik stress kabi ruhiy muammolarni davolashda eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Depressiya va tashvishda tezkor simptomlarni kamaytiradi. Qisqa muddatda (odatda 3-12oyda) natija beradi. **Art-terapiyasi-bu** sa'nat va ijodkorlik orqali insonning ruhiy holatini yaxshilashga qaratilgan psixoterapiya usuli. U rasm chizish , haykaltaroshlik, musiqa, ertak va boshqa ijodiy faoliyatlar orqali insonning ichki dunyosini ifodalash va stressni kamaytirishga yordam beradi. Bu terapiyaning asosiy maqsadi-o'zining ichki dunyosini ifodalash, o'zini qayta anglashga yordam beradi. **O'yin terapiyasi**-bolaning ichki dunyosini o'yin orqali ifodalash va tushunishga yordam beradigan psixologik yondashuv. Bolalar ko'pincha o'z his tuyg'ularini so'z bilan ifodalashda qiynaladi, o'yin esa ichki kechinmalarni ochib beradi. bunda bolalardagi stress va tashvishlar kamayadi va ijtimoiy ko'nikmalar rivojlantiriladi. Mashg'ulotlar 30-60 daqiqa davom etadi. **Guruhiy terapiya**-psixologik muammolarni birgalikda muhokama qilish va hal etish jarayoni. Guruhda muhokama, rolli o'yinlar psixologik mashg'ulotlar o'tkaziladi. Mashg'ulot davomiyligi haftada 1-2 marta 60-90 daqiqa davom etadi. Psixologik tadqiqot metodlari tadqiqotning maqsadiga qarab tanlanadi. Metodlar stressga tushgan depressiya holatida bo'lgan bolalarni aniqlab bersa, terapiyalar o'sha vaziyatdagi holatdan olib chiqishga yordam beradi. Misolida o'yinlar orqali guruhlar orqali raqs terapiyasi orqali bola o'sha vaziyatni holatni unutadi. Bunda faqat kuchli psixologning mahorati talab etiladi. Zo'ravonlikka uchragan bolalar uchun ijtimoiy xizmatlar, o'qish imkoniyatlari, sport faoliyati kabi ijtimoiy faoliyatlar taqdim etilishi zarur. Bu, bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni

jamiyatga qaytarish jarayonida zarurdir. Zo'ravonlikka uchragan bolalar o'zlarini jamiyatdan ajratilgan, yolg'iz va yolg'onga o'rgatilgan deb his qilishi mumkin. Ularning integratsiyasini ta'minlash, jamoat ishlarida qatnashish, ijtimoiy tarmoqlar orqali qo'llab-quvvatlash zarur. Ularni metodikalar terapiyalardan so'ng bolalarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish eng ma'qul yo'ldir. Bolalar sport yoki ijtimoiy faoliyatlarda qatnashib, o'zlarini ijtimoiy tarzda rivojlantirishi kerak. O'zaro yordam guruhlari zo'ravonlikka uchragan bolalar o'z tajribalari bilan o'rtoqlashadigan guruhlarda qatnashishi, bir-biriga yordam berishi mumkin. Bu esa ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Zo'ravonlikka uchragan bolalarning hayotga qaytarish uchun qo'yilayotgan qadamlardir. Bu zo'ravonliklar hozir paydo bo'lgani yo avvaldan bo'lib kelayotgan hodisadir.

MUHOKAMA

XIX asrning oxirlarida ish beruvchilar va o'qituvchilar tomonidan bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'linishi odatiy va keng tarqalgan hol bo'lib, ko'plab mamlakatlarda jismoniy jazo qo'llash tartibi tabiiydek qabul qilinardi. Ammo XIX asrning birinchi yarmida filitsid holatlarini (ota-onalar tomonidan bolalarning o'ldirilishi) o'rganuvchi patologik otalik g'azabi, takroriy jismoniy zo'ravonlik, ochlik, jismoniy zo'ravonlik natijasida o'lim holatlari haqida habar beriladi. Natijada 1960-yillarda mavzu bo'yicha professional tadqiqotlar boshlab yuboriladi. 1962-yil iyul oyida pediatrik psixiatriya bilan shug'ullanuvchi C. Genri Kempe tomonidan yozilgan va Amerika Tibbiyot Assotsiyasi jurnalida chop etilgan "Kaltaklangan bola sindromi" maqolasining nashri bolalarga nisbatan yomon munosabatda bo'lganligini bildiradi. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini o'rganish akademik intizom sifatida 1970-yil yillarning boshida Qo'shma Shtatlarda paydo bo'lgan Elizabet Youn-Bruehlning ta'kidlashicha, bolalar huquqlari himoyachilari soni va bolalarning himoya qilishga qiziqish ko'rsatkichlari va olib borilyotganiga qaramay bolalarni "zo'rlangan" va "zo'rlanmaganlar" guruhiga bo'lish bolalar huquqlari tushunchasini toraytiruvchi su'niy farqni keltirib chiqaradi va bolalarning jamiyatda qanday kamsitilganligini tekshirish harakatlariga ma'lum ma'noda to'sqinlik qiladi. Young-Bruehlning fikriga ko'ra toki jamiyatda bolalarning kattalardan bir pog'ona pastda turishlari haqida qarashlar mavjud ekan, zo'ravonlik holatlari yuz berish yoki

bermasligidan qat'i nazar barcha bolalar azoblanadi. . Bunday zo'rvonlikdan aziyat chekib kelayotgan davlatlarning bir qator tadqiqotchilari o'z ilmiy ishlarini olib borganlar. Xususan Kempe C. Henry

Bolalarga nisbatan zo'rvonlikni tibbiy jihatdan o'rganishga asoschi hisoblanadi. "Battered Child Syndrome tushunchasini ilmga kiritgan.

David Finkelhor

Bolalarga nisbatan zo'rvonlik va jinsiy zo'rvonlik bo'yicha eng yetakchi zamonaviy tadqiqotchilardan biri. U bolalar zo'rvonligi statistikasi va profilinga katta hissa qo'shgan.

Cathy Spatz Widom

"Zo'rvonlik sikli" nazariyasi tadqiq qilgan. Ya'ni bolaligida zo'rvonlik ko'rganlar keyinchalik ham o'zlari ham zo'rvonlikka moyil bo'lishi mumkinligini o'rgangan.

Bessel van der Kolk

Psixolog travma va bolalar rivojiga ta'siri bo'yicha mashhur olim. Travmaning miya va xulqqa ta'sirini chuqur o'rgangan.

Bruce D. Perry

Bolalikdagi travma miya rivojlanishiga qanday ta'sir qilinishini neyrobiologik jihatdan o'rgangan.

Michael E. Lamb

Bolalar rivojlanishi va ota-onalik (parenting)omillarini o'rganib, zo'rvonlikning psixologik oqibatlarini tadqiq qilgan.

Bu tadqiqotlarning barchasi bolalarga nisbatan jismoniy va ruhiy zo'rvonlik sabablari, travmaning miya va psixikaga ta'sirini oldini olish va reabilitatsiya usullarini qo'llashdan iboratdir.

Davlatimiz ham zo'rvonlikka qarshi qator chora-tadbirlar ko'rmoqda. Xususan, Saida Mirziyoyeva ayollar va bolalar huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga doir yig'ilish o'tkazdi. U mamlakatda zo'rvonlikka qarshi samarali choralar ko'rish tizimi zarurligini qarshi qonun qabul qilgan Markaziy Osiyodagi birinchi davlatimiz. Bolalarga nisbatan sodir etilgan jinsiy jinoyatlar uchun ham javobgarlikni ham kuchaytirdik. Ammo bu bilan cheklanib qolmaslik kerak"-dedi Saida

Mirziyoyeva. "Zo'ravonlik holatlariga qarshi tezkor chora ko'rishning samarali tizimini ishlab chiqish zarur"-deb ta'kidladi u. Suhbat davonida Ichki ishlar, sog'liqni saqlash, oliy maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi, bolalar ombudsmani, bosh prokuratura, Oliy sud, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Xotin qizlar qo'mitasi, Mahalla uyushmasi rahbarlari ishtirok etdi. O'zbekiston prezidenti 2024-yil kuzida "Bolalarni barcha turdagi zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" qonuni imzoladi. Qonunni ishlab chiqish bilan 2023-yil oktabr oyidan boshlab prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Adliya vazirligi, va Unicef shug'ullanib kelyotgandi. Qonuning asosiy maqsadi zo'ravonlikning oldini olish, undan jabr ko'rgan bolalar bilan ishlash va oilalarda faravonlik tizimining yaratishdan iboratdir. Qonun 2025-yil 15-maydan kuchga kirdi. Qonunga ko'ra bolaning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni qadr-qimmatini, hamda qonun bilan himoyalangan boshqa huquq va erkinliklarga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan va asosiy ehtiyojlarga zid bo'lgan harakatlar zo'ravonlik deb e'tirof etiladi va bu qonunlar o'z tasdig'ini topdi. Joriy yilning boshida ham zo'ravonlikka qarshi strategiyani e'lon qildi.

2026-2030-yillarga mo'ljallangan Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasi tasdiqlandi.

Unga ko'ra 2026-yil 1-fevraldan zo'ravonlik oqibatida oiladan ajratib olingan, o'ziga nisbatan zo'ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolalar uchun professional tutingan oila joriy etildi.

2026-yil 1-martdan boshlab "Inson" ijtimoiy xizmat markazlarida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ota-onalari uchun mehribon oila "xizmati tashkil etiladi. Bularning barchasi kelajak avlodni sog'lom ruhda tarbiyalash uchun qo'yilayotgan qadamdir.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlikka uchrayotgan bolalarda yuqori darajada emotsional zo'riqish, tashvish va ijtimoiy moslashuv muammolari kuzatiladi. Kuzatish va suhbat metodlari orqali bolaning ichki kechinmalari va qo'rquv holatlari aniqlanadi. Psixodiagnostik testlar natijalariga ko'ra, aksariyat bolalarda stress va depressiv belgilar mavjudligi tasdiqlandi. Bu esa

zo'ravonlikning bola psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatishini yana bir bor isbotlaydi. Qo'llanilayotgan intervensiya metodlari ijobiy natija berdi. Psixokorreksion mashg'ulotlardan so'ng bolalarda tashvish darajasining pasayishi, o'ziga ishonchning ortishi va ijtimoiy faollikning tiklanishi kuzatildi. Bu holat psixologik xizmatning zarurligini va samaradorligini tasdiqlaydi. Zo'ravonlikdan keying psixologik yordam bolaning ruhiy tiklanishida muhim omil hisoblanadi. Biroq tadqiqot jarayonida ayrim cheklolar ham kuzatiladi. Respondentlar sonining cheklanganligi va ayrim bolalarning ochiq muloqotga tayyor emasligi natijalarning ta'sir qilishi mumkin. Mazkur tadqiqot davomida zo'ravonlikka uchragan bolalar bilan ishlashda kompleks psixologik yondashuv zarurligini ko'rsatdi.

Zo'ravonlikka uchragan bolalarga yordam ko'rsatishda psixologik xizmatning ahamiyati nihoyatda katta. Chunki bunday bolalar nafaqat jismoniy, balki chuqur ruhiy jarohatlar ham oladi. Ularning ichki dunyosi qo'rquv, xavotir, uyat, ishonchsizlik kabi og'ir hissiyotlar shakllanadi. Agar bu holatlar bartaraf etilmasa, bolaning kelajakdagi hayotiga, shaxs sifatida shakllanishiga va jamiyatga moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli psixologik xizmat zo'ravonlikdan jabrlangan bolalar bilan ishlashda muhim va ajralmas tizim hisoblanadi. Psixologik xizmatda psixolog mahorati juda katta rol o'ynaydi. Chunki bolalar boshidan kechirgan zo'ravonlik haqida ochiq gapira olmaydi, o'z his-tuyg'ularini ifodalashga qiynaladi. Malakali psixolog esa maxsus usullar orqali bolaning ichki kechinmalarini aniqlab, muammoning asl sabablarini ochib beradi. Bu esa to'g'ri yordam ko'rsatish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Zo'ravonlikka qarshi turish va zo'ravonlik tajribasidan keyingi oqibatlarini kamaytirish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida psixologlar, huquq tartibot organlari faqatgina bular bo'lib qolmay oila a'zolari ham bolalarga e'tibor bilan qarashlarini nazarda tutiladi. Psixologik xizmat faqat bola bilan emas balki, uning oilasi bilan ham ishlaydi. Ota-onalarga yoki vasiylarga to'g'ri muommila qilish, bolani qo'llab-quvvatlash va unga zarar yetkazmaydigan tarbiya usullarini o'rgatadi. Bu orqali oilada sog'lom muhit yaratiladi va bolaga yana zo'ravonlik takrorlanishining oldini olinadi. Davlatimiz ham jabrlangan oilalar zo'rangan bolalarga qarshi qonunlarni chiqarmoqda bu ishlar bee'tibor qolmayapti. Hozirgi rivojlanayotgan davlatimizda maktab, bog'cha

barcha ta'lim tashkilotlarida kamera o'rnatilmoqda. Mahallalarda ijtimoiy hodimning ishini kuchaytirmoqda, bularning barchasi zo'ravonliklarning oldini olish uchun qilinayotgan chora-tadbirlardir. Shu sababli psixologik xizmatlarni rivojlantirish, malakali mutaxassislar tayyorlash va bu yo'nalishga e'tiborni kuchaytirish jamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ta'lim muassasida zo'ravonlikning oldini olish. Uslubiy qo'llanma V. Adescalita, R. Josanu, I. Moldovanu T. Epoyan tomonidan tahrirlangan. 2017.
2. MICS (Multiple Indicator Cluster Survey) hisobotlari (2021-2022)
3. "O'zbekiston Respublikasi qonunlar to'plami" 2023 "NIJU, 250 b.
4. "Childhood adversity and of professionals trained routinely enquire about childhood adversity" Heliyon .5-jild 2019-yil iyul.
5. UNICEF O'zbekistonda bolalar va ayollarga nisbatan zo'ravonlikka chek qo'yishga da'vat etadi. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/unicef-calls-to-end-violence-against-children>
6. M. Mamedzade bolalarni jinsiy zo'ravonlikdan himoya qilish va muqobil parvarish standartlarini yaxshilash bo'yicha harakatlarga chaqirish. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/press-releases/unicef-vakolatxonasi-rahbari-munir-mamedzadening-bolalarni-jinsiy-zoravonlikdan>